



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 4/2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 4/2

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 4/2



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Рахбархон Муртазаева ЭЛЕМЕНТЫ МУЛЬТИКУЛЬТУРАЛИЗМА В ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКЕ УЗБЕКИСТАНА: НОРМЫ, ИНСТИТУТЫ И ПРАКТИКИ.....	5
2. Боходир Эшов, Гайбулла Уралов ИЗ ИСТОРИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ДИНАСТИИ МАНГЫТОВ.....	14
3. Nilufar Djurayeva XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARINING SHAKLLANISH TARIXI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	21
4. Бекзод Пайзуллаев ОСНОВНЫЕ ТОРГОВЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУ БУХАРСКИМ ЭМИРАТОМ И КОКАНДСКИМ ХАНСТВОМ.....	44
5. Farhod Usmanov O‘ZBEKISTONDA BOLALAR QAROVSIZLIGINI BARTARAF ETISHDA BOLALAR UYLARINING AHAMIYATI.....	53
6. Baxtiyor Xudoyberdiyev MALLAXON DAVRIDA QO‘QON XONLIGI VA BUXORO AMIRLIGI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR.....	60
7. Azamat Abduraxmonov SURXONDARYODA MADANIY MEROS YODGORLIKLARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI: TARIXIY TAHLIL (XIX asrning ikkinchi yarmidan - hozirgi kungacha).....	65
8. Фаррух Акчаев ЎЗБЕКОНА МИЛЛИЙ ВА ДИНИЙ ТАРБИЯ УСУЛЛАРИНИНГ МАРОСИМЛАРДА АКС ЭТИШИ.....	72
9. Shuxrat Bozorov ALEKSANDR BYORNSNING BUXORO AMIRLIGIDAGI DIPLOMATIK VA JOSUSLIK MISSIYASI: GEOSIYOSIY MAQSADLAR VA TARIXIY TAHLIL (1832-yil).....	81
10. Татьяна Дорошенко ФОРМИРОВАНИЕ АРМИИ В.АНДЕРСА В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ.....	87
11. Наим Обломуратов СОҲИБҚИРОН МЕРОСИ ВА ЗАМОНАВИЙ ТАРИХИЙ ТАФАККУР.....	96
12. Nargiza Choriyeva SAMARQAND VILOYATINING TURIZM SALOHİYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	104



Baxtiyor Bobomurod o'g'li Xudoyberdiyev,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti O'quv uslubiy boshqarma xodimi
Xudoyberdiyevb59@gmail.com

MALLAXON DAVRIDA QO'QON XONLIGI VA BUXORO AMIRLIGI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR

For citation: Bakhtiyor B. Khudoyberdiyev. RELATIONS BETWEEN THE KOKAND KHANATE AND THE BUKHARA EMIRATE DURING THE REIGN OF MALLAKHAN. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 4/2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19846379>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XIX asr o'rtalarida Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi o'rtasidagi siyosiy munosabatlar Mallaxon hukmronligi davri misolida tahlil qilinadi. Uning taxtga kelishi bilan markaziy hokimiyat mustahkamlanishi, ichki siyosiy barqarorlik kuchayishi va davlat boshqaruvida o'zgarishlar yuz bergani yoritiladi. Shuningdek, ushbu jarayonlarning ikki davlat o'rtasidagi diplomatik, siyosiy hamda harbiy aloqalarga ko'rsatgan ta'siri ilmiy jihatdan ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Shayxulislom, muzokara, Qozog'-Buloq, "O'ratepa o'yini", strategik, mehtar, mirzaboshi, dasturxonchi, Mahram mavzeyi, maktub, dodxoh, siyosiy muhojir, qalmoqlar, qoraqalpoqlar, qirg'izlar va qipchoqlar, G'ulja, "amir lashkar", Shahrisabz, eshikog'asi, munshiy.

Худайбердиев Бахтиёр Бобомурод угли,
Сотрудник учебно-методического управления Шахрисабзского государственного педагогического института Xudoyberdiyevb59@gmail.com

ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ КОКАНДСКОЕ ХАНСТВО И БУХАРСКИЙ ЭМИРАТ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МАЛЛАХАН

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются политические отношения между Кокандским ханством и Бухарским эмиратом в середине XIX века на примере правления Малла-хана. Рассматривается укрепление центральной власти после его прихода к власти, усиление внутренней политической стабильности и происходящие изменения в системе государственного управления. Также научно изучается влияние данных процессов на дипломатические, политические и военные отношения между двумя государствами.

Ключевые слова: шейх-уль-ислам, переговоры, Казах-Булак, «Уратепинская игра», стратегический, мехтар, мирзабаши, дастархончи, местность Махрам, письмо, dodxoh, политический эмигрант, калмыки, каракалпаки, кыргызы и кипчаки, Кульджа, «эмирское войско», Шахрисабз, эшик-агаси, мунши.

Bakhtiyor B. Khudoyberdiyev,
a staff member of the Academic Affairs and Methodology
Department of Shahrissabz State Pedagogical Institute.
Xudoyberdiyevb59@gmail.com

RELATIONS BETWEEN THE KOKAND KHANATE AND THE BUKHARA EMIRATE DURING THE REIGN OF MALLAKHAN

ABSTRACT

This article analyzes the political relations between the Kokand Khanate and the Emirate of Bukhara in the mid-nineteenth century, focusing on the reign of Mallakhan. It examines the strengthening of central authority after his accession to the throne, the enhancement of internal political stability, and the changes in the system of state governance. The study also scientifically explores the impact of these processes on diplomatic, political, and military relations between the two states.

Index Terms: Sheikh al-Islam, negotiations, Kazakh-Bulak, "Uratepa Game," strategic, mehtar, mirzabashi, dasturkhonchi, Mahram locality, letter, dodkhah, political émigré, Kalmyks, Karakalpaks, Kyrgyz and Kipchaks, Ghulja, "Emir's army," Shahrissabz, eshik-agasi, munshi.

Dolzarbli:

XIX asrning ikkinchi yarmi Turkistonda yirik kuchlar avvalgidan ko'ra ancha harakatchan bo'lib qolgan bir davr bo'lib, butun dunyoda bo'ylab mustamlakachilik tizimining eng rivojlangan davri deya ayta olishimiz mumkin. Turkistonga yangi bosqinchi yaqinlashib qolgan edi. Shunday bir vaziyatda Qo'qon xonligidagi ichki siyosiy nizolarning ham oxiri ko'rinmaydigan darajada kuchayib bordi. Aynan Mallaxon va Xudoyorxon kabi aka-ukalar o'rtasidagi kurash xalqimiz tarixida og'ir iz qoldirgan. O'zaro qo'shni bo'lgan Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasidagi qonli urushlar ham qo'shib Chor Rossiyasi bosqini uchun qulay bir vaziyat yaratib berdi.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Mavzu tarixshunoslik va manbashunoslik tahlillariga asoslanadi. Shunga ko'ra mavjud adabiyotlarni ikki guruhlar turkumlashtirish imkoniyati paydo bo'ldi. Ulardan birinchi guruhga mahalliy tarixchilar asarlari, ikkinchi guruhga chet el tadqiqotlarini kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Birinchi guruhdagi tadqiqotchilar Yusupov Sharif, Mirzo Olim Mahdum Hoji, Ishoqxon Ibrat, Avaz Muhammad Attor Xo'qandiy, Muhammad Yunus Toib, Niyoz Muhammad Xuqandiy, Mirzoolim Mushrif va Mahmud Dakim Yayfoniylardan iborat. Ikkinchi guruhga Schuyler E, P.P.Ivanov va Z.M.Maxzuniy kabilardan iborat

Tadqiqot natijalari:

Mallaxon – Sheralixonning o'g'li bo'lib, Xudoyorxonning o'gay akasi edi. Sheralixon Qo'qon taxtiga chiqqan paytda uning o'g'li Sarimsoqbekdan (boshqa nomi Abdurahmonbek) keyin layoqatli yana bir farzandi Mallaxon edi. Boshqa farzandlari (Xudoyorxon, Sulton Murodbek, So'fibek) hali yosh edi. Sheralixon siyosiy ishlarni qo'lga olganida, o'g'li Mallaxoni Toshkentga qo'shin boshlig'i sifatida yuborgan. [1]

Davlat ishlarida muayyan vakolatlariga ega bo'lgan Mallaxon Xudoyorxon davridagi Qo'qon xonligi siyosiy voqealarida nomi ko'p tilga olingan tarixiy shaxsdir. U hukmdor bo'lgan ukasiga Musulmonqul boshchiligidagi qipchoqlarga qarshi kurashda yordam bergan. Uning yordami bilan Xudoyorxon sharmandali mag'lubiyatdan va qipchoqlarga asir tushishdan qutulib, xonlikda ustunlikni qo'lga kiritgan.[2] Mallaxon g'alaba bilan qaytgach, Xudoyorxon akasiga Qo'qon taxtini taklif etgan, ammo u: "Men xonlik ortidan quvayotganim yo'q, maqsadim mamlakatning mustahkamligi va kelajagidir", deb rad etgan. Bu suhbat Qo'qon adabiy muhitining shoiri Shavqiy tomonidan she'r shaklida yozilgan. [3]

Ammo bu voqeaning qanchalik haqiqatga yaqinligi noma'lum, chunki keyinchalik Mallaxon Qo'qon taxti uchun ukasiga qarshi kurash boshlagan. Xudoyorxon Musulmonqul ta'siridan va qipchoqlar isyonidan qutulgan bo'lsada, mustaqil siyosat yurita olmadi va markaziy hokimiyatni

to'liq mustahkamlay olmadi. Shu sababli u bilan akasi Mallaxon o'rtasida nizo kelib chiqqani haqida fikrlar ustun.

Qipchoqlar isyoni bostirilgach, xonlikdagi o'zgarishlar natijasida Mallaxon boshqa rejalarga kirishgan bo'lishi mumkin. Bek va amirlarning ta'siri ostida u fikrini o'zgartirgan ehtimoli bor. Ayniqsa "Tarixi Jahonnamo" asaridagi ma'lumotlar buni tasdiqlaydi. Tarixchiga ko'ra, Xudoyorxonning vaziri va qo'mondoni Niyoz Muhammad mingboshining vafotidan so'ng uning o'rniga Mirzo Ahmad kelgan va u Do'st Muhammad Inoqni dasturxonchi lavozimiga tayinlab, hokimiyatda muhim rol o'ynagan.[4] Bu ikki shaxs ittifoqi natijasida xonga noto'g'ri ma'lumotlar yetkazilgan va aka-uka orasiga adovat solingan.

Mirzo Ahmad Toshkent va Turkiston hokimi bo'lganida, aholiga zulm o'tkazgan, natijada xalq noroziligi kuchayib, hatto uni qurshab olgan. Shu paytda Mallaxon Xudoyorxon buyrug'i bilan uni qutqarib qolgan va xalqni tinchlantirish uchun ularning dardini tinglab, soliqlarni kamaytirgan. U davlat boshqaruvidagi adolatsizliklarga qarshi ochiq norozilik bildirgan.[5] Natijada xalq va qo'shin Mallaxonga mehr qo'ygan. Xudoyorxon unga taxtni taklif qilganida ham, u rad etib, ukasiga to'g'ri yo'lda yurishni maslahat bergan. Xudoyorxon atrofida halol odamlarning yo'qligi fitnani kuchaytirgan asosiy omil bo'lgan. Aka-ukalar orasiga adovat solish siyosatda qadimdan qo'llanib kelgan usullardan biridir.

Xudoyorxon Mallaxonni ko'rsatgan jasorati uchun Toshkent hokimi qilib tayinlangan. Ammo uning ilk isyoni ruslarning Oqmachitga hujum qilgani haqidagi xabarlar bilan bir paytda boshlangan. Shu orada O'ratepada ko'tarilgan isyonni bostirish uchun Xudoyorxon qo'shin bilan yo'lga chiqib, qiyin ahvolda qolgan. Mahram mavzeyiga yetganda, Mallaxon tomonidan yuborilgan elchi Ko'r Quldosh Yuzni qabul qilgan. Mallaxonning o'rin almashish taklifini eshitgach, Xudoyorxon elchini o'ldirishni buyurib, o'zi Toshkent tomon yo'l olgan. U Mavlono Muhammad Rajab munshiy orqali Mallaxonga maktub yuborib, qarshilikdan voz kechishini so'ragan, ammo Mallaxon bunga bo'ysunmagan.[6]

Xonlikda beqarorlik davom etayotgan bir paytda, Buxoro amiri O'ratepani egallagan, ruslar esa Oqmachit qal'asini bosib olib, hudud ichkarisiga kirib kelgan edi. Xudoyorxon qal'ani oz sonli qo'shin bilan Shadmon Hojaga topshirgan. Keyinroq u Toshkentni qamal qilish uchun Qosim mingboshini chaqirib, Mallaxonni mag'lub etgan va Mallaxon Buxoroga qochgan. Shundan so'ng Toshkentga So'fibek bilan birga Davron dodxox Tojik hokim qilib tayinlangan. Mallaxonning isyonini Buxoro amiri qo'llab-quvvatlagan va u mag'lubiyatdan so'ng shu yerga boshpana olgan. Xudoyorxon akasining Buxoroda siyosiy muhojir bo'lib yashashini o'ziga ep ko'rmay, unga har oy kiyim-kechak va 100 oltin yuborib turgan. Ikki yildan so'ng (Xudoyorxon taxtga chiqqanining 14-yilida) uni afv etib, Qo'qonga qaytarib olgan.

Qo'qonga qaytgan Mallaxon yana ikki yil o'tgach, qalmoqlar, qoraqalpoqlar, qirg'izlar va qipchoqlar bilan ittifoq tuzib, yana ukasiga qarshi chiqdi.[7] Bu ham fitna va hokimiyat uchun kurash natijasi edi.

Bu orada Buxoro amiri Nasrullo O'ratepani egallagach, Xo'jandni ham qamal qilgan edi. 1857-yilda bu hujumlarga qarshi xalq qo'zg'oloni ichki urushga aylangan. Bu vaziyatdan foydalangan Mallaxon Xo'jandni qaytarib olish va taxt uchun yana harakat boshlagan. Xudoyorxon uni qo'lga olib yo'q qilishni istagan, ammo Mallaxon G'uljaga qochib, qirg'izlar yordamida qo'shin to'plagan. Nasrullo Xo'jand qamalini to'xtatib, Buxoroga qaytgan. Xudoyorxon Rishton yaqinida qo'zg'olon tayyorlayotgan Mallaxonga qarshi yurish qilgan. 1858-yil 25-oktabrda aka-uka o'rtasida jang bo'lib, Xudoyorxon mag'lubiyatga uchragan.[8] U oz sonli qo'shin bilan Qo'qonga qochib, saroyga yashiringan.

Bu paytda Mirzo Ahmad mingboshi Buxoroga qochgan edi. Mallaxon Qo'qonni qamal qildi. Qamalning 21-kunida Xudoyorxon sulh uchun vakillar yuborgan edi, ammo Andijon hokimi So'fibek, Marg'ilon hokimi Shohmurodbek, Qosim mingboshi va boshqa lashkar boshliqlari Mallaxonni qo'llab-quvvatlashlarini bildirgan. Bundan xabar topgan Xudoyorxon mag'lubiyatni tan olib, ukasi Sulton Murodbek bilan Xo'jandga, u yerdan esa Buxoroga qochishga majbur bo'lgan.

Mallaxon, akasi xonlikni yaxshi boshqara olmayapti degan sabab bilan hokimiyatni qo'lga olgach, davlat boshqaruvida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish uchun turli choralar

ko‘rishga harakat qildi. U taxt uchun kurashda o‘zini qo‘llab-quvvatlagan qipchoqlarni mukofotlash maqsadida, Xudoyorxon davrida tortib olingan yer va mulklarni yana ularga qaytarib berdi. Davlat birligini ta‘minlash va hududlarni kengaytirish maqsadida u Buxoro amirligiga qaram bo‘lgan O‘ratepa va Jizzax shaharlariga yurish qildi. 1859-yilda Buxoro amiri Nasrulloh O‘ratepa va Jizzaxni Qo‘qon xonligidan tortib oldi, keyin esa Xo‘jandni ham egallab, Nov qal‘asiga Qanoat Shohni hokim etib tayinladi. Bir muddat o‘tgach, Qanoat Shoh Qo‘qon xonligiga kelib, o‘z sadoqatini bildirdi. Mallaxon unga “amir lashkar” unvonini berib, Toshkent hokimi qilib tayinladi.[9] So‘ng uni Qorategin hududida joylashgan Xudoyorxon va uning ukasi Sulton Murodbekka qarshi yubordi.

Bu qarshi harakat natijasida Xudoyorxon o‘z joyini tark etib, Jizzax tomon yo‘l oldi. 1860-yil 24-yanvarda Mallaxon Jizzaxga ham qo‘shin yuborib, uning boshiga Sarimsoq Qurama va Dushabay Ponsodni tayinladi. Mirza Rabot hududida bo‘lib o‘tgan jangda Xudoyorxon qo‘shini mag‘lubiyatga uchradi va u Buxoroga chekinishga majbur bo‘ldi. Ukasi Buxoroga ketganidan keyin Mallaxon o‘z qo‘shini bilan O‘ratepa tomon yo‘l oldi, ammo amir qo‘shinlaridan zarba olib, Xo‘jandga chekinishga majbur bo‘ldi. [9]

1861-yilda Buxoro qo‘shini O‘ratepagacha bo‘lgan hududlarni yana Qo‘qon xonligidan tortib oldi. Ammo Shahrisabz bekligining qo‘llab-quvvatlashi natijasida Zomin va Jizzax yana Mallaxon qo‘liga o‘tdi. Shu orada Nasrulloh amir dahshatli tarzda vafot etdi (1860) va Buxoro taxtiga uning o‘g‘li Amir Muzaffar (1860–1885) o‘tirdi. O‘ratepa ustidagi davom etayotgan urush Mallaxon va Amir Muzaffar hukumatlari o‘rtasida ham davom etdi. O‘ratepa jangida Buxoro tomonidan Ibrohim Hayol Mang‘it, Qo‘qon tomonidan esa Marg‘ilon va Yormozor hokimi bo‘lgan Olimqul Eshikog‘asi Qirg‘iz o‘zaro to‘qnashdi. Nov qal‘asi hokimi Abdulg‘afforbek Yuz Ibrohim Hayol bilan kelishib, Buxoro qo‘shinini shaharga kiritdi, ammo Olimqul ularni chekinishga majbur qilib, taxminan 560 nafar Buxorolik askarni asir oldi.[9] Mirzo Olim Mushrif esa bu asirlar sonini 700 nafar deb ko‘rsatadi.

Bu natijadan g‘azabini yashira olmagan Amir Muzaffar Ibrohim Hayolni Sherobodga, Abdulg‘afforbekni esa Chorjo‘yga surgun qildi. O‘ratepaga esa Botirbekni hokim etib tayinladi. Buxoro amirining bu harakatlaridan so‘ng Mallaxon ham O‘ratepaga kelib, shaharni 80 kun qamal qilgach, uni o‘z nazorati ostiga oldi.[4]

Shu paytda Shahrisabz beklari Buxoroga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarib, Mallaxondan yordam so‘radi. Natijada Mallaxon Buxoro tasarrufidagi Samarqand va Jizzaxga hujum uyushtirdi. Amir esa Shahrisabzga yurishini to‘xtatib, Samarqandga, u yerdan esa Yangiqurg‘onga keldi. Mallaxon tinchlik maqsadida Amir huzuriga Boboxo‘ja Shayxulislomni elchi sifatida yubordi. Muzokaralar natijasida Qo‘qon va Buxoro o‘rtasidagi chegara masalasi hal qilindi. Kelishuvga ko‘ra, Qo‘qonning g‘arbiy chegarasi Qozog‘-Buloq hududidan o‘tadigan qilib belgilandi.

Asosiy chegara janglari O‘ratepa ustida yuz bergan bo‘lib, bu hudud qo‘ldan-qo‘lga o‘tishi shu qadar tez-tez sodir bo‘lardiki, manbalarda xon har yili besh marotaba O‘ratepaga hujum qilgani qayd etilgan. Hatto bu holat kulgili tus olib, Qo‘qonlik bolalar orasida “O‘ratepa o‘yini” ham paydo bo‘lgan. Farg‘ona, Zarafshon va Iloq vodiylarini bir-biriga bog‘lovchi katta savdo yo‘li ustida joylashgan qadimiy shahar har ikki davlat uchun ham strategik ahamiyatga ega edi. Mallaxon Qo‘qon xonligida bir qator islohotlarni amalga oshirdi. U hudud xavfsizligini mustahkamlashga va chegaralarni kengaytirishga harakat qildi. Mahmud Dakim Yayfaniy ma‘lumotlariga ko‘ra, Mallaxon mamlakatda islom dini va shariat qonunlari ijrosini o‘z nazoratiga olgan. [10]

Mallaxon Rossiya imperiyasining harbiy va strategik qudratini anglab yetgan va shu sababli Rossiya bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatishga intilgan. U Rossiya bilan chegara mojarolarining oldini olish uchun aholiga ham chegara qoidalariga rioya qilish majburiyatini yuklagan, hatto bu qoidani buzganlarga o‘lim jazosi ham qo‘llagan. Biroq Rossiya qo‘shinlarining Qo‘qon qal‘alarini bosib ola boshlashi uni boshqa siyosat yuritishga majbur qildi. Rossiya imperiyasining bosqinchilik harakatlariga qarshi Qo‘qon xalqi katta qarshilik ko‘rsatdi.

Ibrat shunday degan: “Farg‘ona va Turkiston hukmdorlaridan ikki kishi xalq, millat va din yo‘lida ruslarga qarshi kurashgan: biri Alimqul amir lashkar, ikkinchisi esa Xudoyorxonning ukasi Malla Xondir.” [3] Mallaxon davrida Qo‘qon–Buxoro o‘rtasidagi chegara urushlari kuchayib ketdi

va bu holat aholi noroziligiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, Mallaxon olib borgan siyosat ayrim beklar va amirlarning manfaatlariga zid kelgani uchun muxolifat yuzaga keldi.

Abdurahmonbek (Sarimsoqxon) o'g'li Shohmurodxonni taxtga olib chiqib, yangi hokimiyatda o'z ulushiga ega bo'lishni istagan Olimbek Dodhoh Qirg'iz, [12] Xidirbek Eshikog'asi,[13] Hudoynazar Dodhoh Turk, Do'st Mehtar, Muhammad Ibrohim Mirzaboshi Kosoniy hamda bir nechta qipchoqlar ittifoq tuzib, 1862-yil 25-fevralda Mallaxonni yotgan joyida suiqasd qilib o'ldirdilar.[11] Ibrat va Niyoz Muhammad Xo'qandiy bu voqeada Mulla Alimqul bosh bo'lganini, ammo uning nomi oshkor bo'lmasligi uchun suiqasdda qatnashganlarni keyinchalik yo'q qilganini ta'kidlaydi.[3] Vafot etganida 30 yoshda bo'lgan Mallaxon Qo'qon xonligi taxtida uch yil to'rt oy hukmronlik qilgan.

Xulosa qilib aytganda Turkistonda hokimiyat uchun kurashlar, turli xil fitnalar va qo'shni davlatlar bilan qonli urushlarning oqibati o'laroq mahalliy aholining xon va amir hokimiyatiga bo'lgan ishonchi ham ma'lum darajada pasaygan va tinkasi qurigan holda edi. Bunday holat albatta birgina Mallaxonga bog'liq bo'lmay, uning atrofidagi siyosiy kuchlarning turli fitna va siyosiy o'yinlari oqibatida shakllangan edi. Buxoro amirligi bilan bo'lgan munosabatlarda asosan agressev talon-tarojga boy urushlar bilan kechgan bo'lib, natijada ko'plab hududlar vayronaga aylanib boradi. Buning oqibatida eng ko'p oddiy xalq aziyat chekadi. Chor Rossiyasi bosqini aynan shu davrga kelib boshlanib oxir-oqibatda Turkistonni mustamlakaga aylantiradi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Mirzo Olim Mahdum Hoji, Tarixi Turkiston, Nashrga tayyorlovchilar: Sh. Vohidov, R. Xoliqova, Toshkent, 2009.103-bet
2. Yusupov Sharif, Xufiya qatlamlar, "Ma'naviyat" nashriyoti, Toshkent, 1999. 48-bet
3. Исҳоқхон Ибрат, Жунаидуллохўжа ўғли: Фарғона тарихи, Нашрга тайёрловчилар: Ҳ. Бобобеков, М. Ҳасаний, «Камалак» нашриёти, Тошкент, 1991. 299-б 308-б.
4. Аваз Муҳаммад Аттор Хўқандий: Тарихи жаҳоннамои, Форсчадан таржимон: Ш. Воҳидов, «Шарқ юлдузи», Тошкент, 1991. 239-б, 243-б 258-б, 262-б, 268-б.
5. Муҳаммад Юнус Тоиб,: Тарихи Алимқули амирлашкар, Нашрга тайёрловчи: Ш. Воҳидов, «Шарқ юлдузи» журнали, Тошкент, 1996. В-216
6. Ниёз Муҳаммад Хўқандий "Ибратул ҳавокин" (Тарихи шахрухий) Тожиқ тилидан таржимон, ўзбек тилидан таъдил, кириш ва изоҳлар муаллифи тарих фанлари доктори, профессор Ш.Воҳидов Тошкент «Turon zamin ziyo» 2014. 202-б 231-б.
7. Иванов, П.П.: Очерки по истории Средней Азии (XVI — середина XIX в.), Издательство восточной литературы, Москва, 1958. В-212.
8. Зиябиддин Максум Махзуни,: Фарғана хандарынын тарыхы, Кыргызчага которгондор: Молдо Сабыр жана О. Соорон Сопу, «Турар» басмасы, Бишкек, 2007. В-219.
9. Мирзоолим Мушриф,: Ансоби ус-салотин ва таворих ул-хавокин (Кўкон хонлиги тарихи), Нашрга тайёрловчилар: Акбар Матғозиев, Муҳаббат Усмонова, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент, 1995. В-61, б-64.
10. Махмуд Дақим Яйфоний: Хуллас ут-таворих (Тарихлар сараси), Нашрга тайёрловчи: Ш. Воҳидов, «Янги аср авлоди» нашриёти, Тошкент, 2004. В-52 .
11. Schuyler E, Turkistan: Notes of a Journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara, and Kuldja, С. I-II, London, 1876, 91-bet

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000